

## **XORAZM AHOLISINING DINIY-MISTIK MADANIYATI: “MAGIK KVADRAT” VA GEOMETRIK SHAKLLAR**

---

***Matchanova Sanobar Muxamedjanovna***

*UrDU akademik litseyi tarix va huquq fani o'qituvchisi.*

*Mustaqil izlanuvchi*

*matchanovasanobar@gmail.com*

*Tel: 93 748 65 34*

*<https://orcid.org/0009-0001-3099-8014>*

Xorazm aholisining diniy-mistik madaniyati ko'p asrlar davomida shakllanib, turli diniy, afsun va shifobaxsh amaliyotlarda namoyon bo'lgan. Ayniqsa, magik kvadratlar va geometrik shakllar ularning diniy va madaniy hayotida muhim rol o'ynab, har qanday kasallikdan himoya, ruhiy barqarorlik va omadni ta'minlash uchun ishlatilgan. Ushbu maqola mazkur amaliyotlarning tarixi, simbolikasi va foydalanish usullarini yoritishga bag'ishlanadi.

To'rtburchak — u “magik kvadrat” yoki “lotin kvadrati” deb ham ataladi va eng qadimgi shakllardan biridir. Xususan, 36-sura quyosh botishidan oldin kvadrat ichiga yoziladi va u chayon, ilon kabi zaharli hayvonlardan, olov va suvdan keladigan ofatlardan, shuningdek, har qanday kasallikdan himoya qiladi, deb qaraladi.<sup>1</sup>

Ko'krak do'ziy ham shifo tumori bo'lib to'rtburchak shaklda yasaladi<sup>2</sup>. U yakka holatda olamning to'rt tarafini anglatgan. Ammo, ichma-ich yasalgan 3 ta to'rtburchak tabiatning to'rt unsuri, olamning to'rt tarafi, to'rtta farishtaga ishora bo'lgan.

L.T. Yablonskiyning уни 4 та кастани ифодалайди, деган фикрни ҳам киритган ва унинг ta'kidlashicha, mil. avv. VII–VI asrlarda jamiyat jangchi, suvoriylar, kohinlar va kohina ayollar, urug'ning oddiy va qashshoqlashgan vakillaridan iborat to'rt qismga bo'lingan<sup>3</sup>.

Allohning ismlari asosan kvadratlar ichiga yozilgan. Kvadratlar esa 3 likdan tortib 10 likkacha bo'lgan. Masalan, Ar-Rahiyim ismi 4 va 5 lik kvadratlarga, Al-Malik 3 lik kvadrat va to'rtlik kvadratga, Al-Quddus 4 lik kvadratga joylashtirilgan. As-Salom–Al-Hatim, Al-Mumin, Al-Jabbor, Al-Qahhor, Al-Ghaffor, Yo Fattah ismlari ham 4 lik kvadratlarda yozilishi rasmiylashtirilgan. Eng katta 10×10 kvadratga esa Yo Ghani ismi yozilgan.

---

<sup>1</sup> Резван. Коран в система мусулманских магических практик ... 170-176 б

<sup>2</sup> Xivada “Ichon Qal'a” muzey qo'riqxonasi fondi КП.177

<sup>3</sup> Яблонский Л.Т. Саки Южного Приаралья (археология и антропология могильников). - М.: 1996. – С. 66.

Ismi A'zam ichma-ich joylashgan doira ichiga belgilangan duo bilan birgalikda yozilib, ikki doira orasiga aylana va ichki doiraga to'g'ri chiziq holda, tashqi doiraning 6 ta tomoniga Allohning Jalil va Vohid ismlari qo'shib yozib olib yurish tavsiya etilgan. Azim doira rasmi tutqanoq kasalligi uchun yozilgan. Ko'krak do'ziyga "Oyatul Kursiy" kvadrat ichidagi bir qancha kvadratlarga joylashtirilgan holda yozib berilgan. Al-Quddus, Al-Hafiz, Qobus ismlari 5 lik romb va ko'p romb shaklida ham yozilishi tavsiya etilgan..

Besh burchakli davocha taxya do'ziy<sup>4</sup>da aks etgan . Qadimgi yunonlarda u "pentakl" deb atalgan va ularga ma'lum bo'lgan 5 ta sayyoraning harakatini va ularga egalik qiluvchi 5 jinni anglatgan. Musulmonlarda esa nomozning 5 ta vaqti bilan bog'liq. Olti burchak- Sulaymon payg'ambarning uzugida aks etganligi va jinlar ustidan xukmronlik muhri sifatida jinlardan saqlanish maqsadida nafaqat taqinchoqlar, balki gilamlar, va qurilish inshootlarida ham ishlatilgan. Etti burchak-haftaning etti kunini anglatgan. Xorazm tanga do'ziy<sup>5</sup>larida 21 dan-28 gacha bo'lgan to'rtburchak, uchburchak, doira shaklidagi g'iloqlar bo'lib, ularga oy kalendari hisobida arab alfavitining 28 xarfi joylangan. Manglaydo'ziyning tumor qismi doira<sup>6</sup> shaklida bo'lib, u olamning kengligiga va hosildorlikka ishora qilgan. Farzand ko'rish duosi doira ichiga yozilgan. Tsilindrik shakldagi tumor va qo'shtumorlar<sup>7</sup> olamning ikki tarafini anglatgan. Xivada "Ichon Qal'a" muzey qo'riqxonasi fondida saqlanayotgan "qo'shtumor"<sup>8</sup>—oltindan yasalgan va boshga taqiladi. Uning ichiga bosh og'rig'iga qarshi duo va oyatlar yozib joylashga mo'ljallangan. Keyinchalik tumorlarning o'ziga oyatlar o'yib ishlangan. Shuningdek, kumushdan ishlangan turlari va yakka tumorlar ham saqlanib kelmoqda<sup>9</sup>.

Bu shakllarning barchasini jamlagan shavkala <sup>10</sup> taqinchog'ini Xorazm aholisining shifo bilan bog'liq barcha diniy tasavvurlari aks etgan kitob deyish mumkin.

---

<sup>4</sup> КП 1156

<sup>5</sup> КП 1122, 1135, КП.1142

<sup>6</sup> КП 5334/9, 1136, КП1152, КП.1154- КП 1158

<sup>7</sup> КП 192-195, КП 1147, КП 1130, КП 1136, КП 1139, КП 1142, КП 1148

<sup>8</sup> Xivada "Ichon Qal'a" muzey qo'riqxonasi fondi КП 5340/2.

<sup>9</sup> Xivada "Ichon Qal'a" muzey qo'riqxonasi fondi. КП 178, КП 195, КП 1144, КП 6177/8, КП 194.

<sup>10</sup> КП 177, КП.179, КП 1164, КП 1165, КП.1170

Davodo'ziyning ko'krakka taqiladigan yana bir turi o'zida uchta shakldagi (uchburchak, to'rtburchak, tsilindr) davochalarni ketma-ket ulangani holda uchraydi. D.Faxretdinova<sup>11</sup> bu tipni faqatgina Xorazmga xos ekanligini qayd etadi.

Asosan, afsunlar shakl va ramzlarda beriladi, chunki ularni oddiy aholi tushunmasligi kerak bo'lgan<sup>12</sup>. Xususan, uzuklarda yuzasiga raqamli kvadratlar o'yilgan. U. Badj Britaniya muzeyidagi №2298 eksponatidagi sakkizburchakli halqa yuzasiga quyidagi raqamlar joylashtirilganligini aytadi<sup>13</sup>.

9 8 18 1

8 18 1 9

1 9 8 18

18 1 9 8

Har bir qatorning, vertikal yoki gorizontal bo'ylab yig'indisi 36 ga teng.

Arab alifbosida har bir harfga raqamiy qiymat berilgan. Shu bois, bunday kvadratlardagi raqamlar ma'lum harflarga, u harflardan tashkil topgan Qur'on oyatlariga yoki "quvvatli kalima" deb hisoblangan muqaddas ismlarga ishora qiladi. Masalan, Allohning ulug' ismlaridan biri — Musavvir ("Shakl beruvchi") bo'lib, uning harflari raqamiy qiymati quyidagicha:

M 40 = (م), C 90 = (ص), B 6 = (و), P 200 = (ر) = Жами: 336

Mana shu 336 raqami magik kvadratning birinchi qatoriga qo'yiladi. Qolgan uch qator ham shunday joylanadiki, har bir qator va ustunning yig'indisi hamisha 336 ga teng bo'ladi. Dutte bu kvadratni homilador bo'la olmagan ayollarga farzand ko'rishda yordam beradigan amulet sifatida ishlatilganligini aytadi. Quvvat esa — kvadratda ramziy berilgan Ilohiy Ismdan keladi, deb hisoblangan. Shu sababli ko'pgina hukmdorlarning uzuklarida faqat raqamlar berilgan.

Fransuz etnografi va islamshunosi Edmond Dutte (1867–1926) o'zining "Magie et religion dans l'Afrique du Nord" ("Shimoliy Afrikada magiya va din", 1908) hamda "Merrâkech" (1905) asarlarida Shimoliy Afrika musulmon aholisi orasida keng tarqalgan amulet-uzuklarning vazifalari, semantikasi va amaliy qo'llanilishi haqida

<sup>11</sup> Фахретдинова Д.А. Юв..... 157 -б

<sup>12</sup> Резван М. Е. Коран в системе мусульманских магических практик. — СПб.: Наука, 2011. — 220 с., ил. ISBN 978-5-02-038268-8.

<sup>13</sup> The Nesser Doktor Halili Kollektion of Islamic art. Science, Tools & Magic . Part One: Body and Spirit Mapping the Universe.Volum 1-XIII. Published 1997: Brasses, Bronze and Silver of the Islamic Lands.VOLUME XI.Published 2022

qimmatli ma'lumotlar beradi. Duttning kuzatuvlariga ko'ra, uzuklar ushbu mintaqada nafaqat ziyanat buyumi, balki doimiy himoya vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Qur'on oyatlari (ayniqsa, "Ihlos" — 112-sura), Allohning va Payg'ambarning ismlari, farishtalar yoki avliyolar nomi, magik kvadratlar, baraka, himoya, farovonlikka oid formulalardan iborat uzuklar keng tarqalgan. Aytilishicha, so'fiy darveshlarda ham uzuk berish marosimi bo'lgan.

XIV–XV asrlar fol ilmining eng taraqqiy etgan davri bo'lib, u ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning barcha jabhalarini egallab olgan. Bu esa hunarmandchilikning rivojlanishiga ta'sir qilgan. Turkiy tarixchilardan biri "O'rta asrlarda hunarmand, rassom va folbin bir kishi edi", deydi. Bu haqiqatan ham shunday bo'lgan. Hunarmandlar qog'ozdagi yozuvlarni metall va toshlarga ko'chira boshlaganlar, shuningdek, duo qiluvchilar uchun qoplamlar tayyorlashni kuchaytirganlar; natijada ular taqinchoq va kiyimlarning bir qismiga aylangan.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xivada "Ichon Qal'a" muzey qo'riqxonasi fondi , KP 5329/23 – Qoraqalpoq ko'krak tumori.
2. Xivada "Ichon Qal'a" muzey qo'riqxonasi fondi , KP 177/2 – inventar sinzilla.
3. Xivada "Ichon Qal'a" muzey qo'riqxonasi fondi , KP 1138, KP 1122, KP 1135, KP 1142.
4. Xivada "Ichon Qal'a" muzey qo'riqxonasi fondi КП.177, КП 5334/9, 1136, КП1152, КП.1154- КП 1158 , КП 192-195, КП 1147, КП 1130, КП 1136, КП 1139, КП 1142, КП 1148
5. Яблонский Л.Т. Саки Южного Приаралья (археология и антропология могильников). - М.: 1996. – С. 66.
6. Es Seyyid Suleyman El Husayniy. Havas-ul Kur'on Kenz-ul Xavas. Salelestiren Mustafu Varli. – Turkiye. Stanbul. Yayınevi: Esma nashrlari, 2003. -s.50-56
7. Xivada "Ichon Qal'a" muzey qo'riqxonasi fondi КП 5340/2.
8. Xivada "Ichon Qal'a" muzey qo'riqxonasi fondi. КП 178, КП 195, КП 1144, КП 6177/8, КП 194, КП 177, КП.179, КП 1164, КП 1165, КП.1170
9. Фахретдинова Д.А. Юв..... 157 -б
10. Резван М. Е. Коран в системе мусульманских магических практик. — СПб.: Наука, 2011. — 220 с., ил. ISBN 978-5-02-038268-8.
11. The Nesser Doktor Halili Collektion of Islamic art. Science, Tools & Magic . Part One: Body and Spirit Mapping the Universe.Volum 1-XIII. Published 1997: Brasses, Bronze and Silver of the Islamic Lands.VOLUME XI.Published 2022
12. Edmond Doutté. Magie et religion dans l'Afrique du Nord. Paris. 1908